



O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINING MUSIQA MADANIYATI FANI DARSLARIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Zoirova Mehriniso Xurshid qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

mehriniusozirova@gmail.com

Umumiy o'rta ta'lif muassalarida har bir fanning vazifasi bo'lgani kabi musiqa madaniyati faning ham maqsad va vazifasi mavjud. Unga ko'ra shu fan bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amaliyotda qo'llash orqali ularda kuzatuvchanlikni, musiqiy xotirani, obrazli tasavvur qilishni, ijodkorlikni, tashabbuskorlikni, badiiy didni rivojlanishirish va fikr doirani kengaytirishdan iborat qilib olingan.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun dars va to'garak mashg'ulotlari jarayonida olib boriladigan faoliyat turlari va fan kompetensiyalariga ahamiyat qaratish muhim sanaladi. Fan darsliklaridagi ma'lumot va topshiriqlar oddiydan murakkabga qarab yoritilib bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. 2- sinfda o'tilgan mavzu 3- sinfga o'tganda o'quvchi ongida bo'shliq qolmagan bo'lsa, dars samaradorligi yuqori bo'lsa o'quvchida murakkab mashg'ulotlarni tushunish va bajarishda qiyinchilik tug'dirmaydi.

2022-2026 yillarda Maktabgacha va muktab ta'lmini rivojlanishirish bo'yicha Milliy o'oquv dasturida ham "O'qituvchilarning ilg'or tajribasi va faoliyatida qo'llangan zamonaviy metodikalarni ommalashtirish" va yangi avlod darsliklarini yaratishgacha e'tiborga olingan va shu bilan birga dars sifati uchun kompetensiyalarga biroz o'zgartirishlar kiritilgan.

Shu kunga qadar musdiqa madaniyati fani va to'garak mashg'ulotlari jarayonlari deyarli nazariy mashg'ulotlar bilan chegaralangan va amaliyot bilan shug'ullanish kam vaqt ni tashkil qilgan. Natijada dars sifati ham shu darsga bo'lgan qiziqish va tasavvurlar ham o'quvchida yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'limganlar.

O'zbekistonda san'at, ma'naviyat, estetik va badiiy an'analarni avloddan-avlodlarga yetkazish, san'at asarlarini idrok etishga o'rgatish orqali baddiy madaniyatini rivojlanishi, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash, o'quvchilarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish bilan birga badiiy va estetik did sifatlarni rivojlanishirishga yo'naltiriladi.

Ushbu fanni o'qitishda uzviylik va uzliksizlikni ta'minlash orqali o'quvchilarda madaniy qadryatlarga asoslangan ijodiy va shaxsiy fazilatlar shakllantirilishi lozim bo'lsada, mazkur fan mazmuni va o'qitilishida quyidagi muammolar mavjud:

musiqa madaniyati fani o'quvchilarning yosh xuxusiyatlarini inobatga olib, amaliy faoliyatga yetarlicha vaqt ajratmayotganligi o'quvchilarning individual ijodiy rivojlanishini susaytirmoqda;



ijodiy erkinlikni ta'minlash maqsadida amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan DTS asosida alternative darslarni yaratilishi va ulardan tajriba sinov tarzda foydalanishni yo'lga qo'yish;

ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktablarda musiqa madaniyati darslarining yillik yuklamasi 34 soatda 17 soatga qisqarganligi, DTS talablarini to'liq bajarishga to'sqinlik qilmoqda;

aksariyat umumta'lim maktablari musiqa madaniyati fani uchun zarur bo'lgan jihozlar va cholg'ular bilan jihozlanmagan;

darsliklarda o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarda bilishga qiziqish, ishtiyoq va maylni hosil qiladigan o'yin va mashqlar, arttexnologiyalar o'z aksini topmagan;

o'quvchilarni o'zaro hamkorlikda ishslash, mazkur fan bo'yicha mashg'ulotlarni shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillariga asoslanib o'qitish yo'lga qo'yilmagan;

mazkur fanni o'qitishda ilg'or xorijiy, jumladan Janibiy Koreya, Yaponiya kabi Osiyoning rivojlangan mamalakatlari tajribasi hisobga olinmagan;

o'quv dasturlari va darsliklar mazmunida tizimlilik, uzviylik va uzliklsizlik tamoyillariga rioya qilinmagan;

mavzularda ketma-ketlilik va izchillik hisobga olinmagan;

mavzularni o'zlashtirish shaxs rivojining kognitiv (bilish) sohasga yo'naltirilgan bo'lib, kreativlik, ijtimoiy emotsiyonal va shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qilmaydi;

mafvzularni o'zlashtirish uchun asosan bilimlarni tekshirishga doir test savollaridan foydalanish bilan cheklanilgan;

mazkur fanlarda o'qitiladigan mavzular sinflar bo'yicha tahlil qilinganda ko'plab mavzular fanlar va mavzular aro integrallashtirilmagan;

darslikdagi o'quv materiallari o'quvchilarni musiqaga doir bilimlar bilan qurollantirishga xizmat qilishi mumkin, biroq amaliy ko'nikmalar, ijodiy va ijodiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirishga imkon bermaydi;

haftada 2 soat qilib amaliy dars uchun yoki cholg'u soati qilib dars soati ajratilmaganligi o'quvchida cholg'u asboblarda ijrochilik, nota savodxonligi, ijro malakasi shakllanmayotganligiga olib kelgan;

Musiqa madaniyati fani uchun uchta kompetensiya asos qilib olingan. Bu kompetensiyalar zamirida mustaqillik, amaliyot bilan ko'proq shug'ullanish kabi tushunchalar bor. Bulardan biri "O'z- o'zini rivojlantirish va asrash" kompetensiyasi sanaladi. Bu kompetensiya amaliy ishni bajarishda dars va to'garak mashg'ulotlarida amaliy faoliyat bilan shug'ullanganda cholg'u asbob chalishni o'rganish, jamoa bo'lib kuylash kabilarda tozalikka rioya qilish o'quvchining har bir topshiriqni bajarish, uyda va sinfdagi topshiriqlarni o'qib o'rganish, o'z ustida ishslash kabi xususiyatlarni qamrab oladi va o'quvchilarda shakllantirish vazifasi yotadi. Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi o'quvchilardagi o'z xató va kamchiliklarini to'g'ri tushuntirib yo'lga qo'ygan xatolarini tuzatishga harakat qilish, o'zini nazorat qila olishlik, rostgo'ylik,



to'g'rilik, yaxshi fazilatlarga rioya qilish, turli yo'nalishdagi fan darsliklari va kitoblarni muntazzam o'qib o'rganishlari uchun ko'maklashishlari zarur.

Xulosa shundan iboratki umumta'lim maktablaridagi dars va mashg'ulotlardagi bu muammolarni yeshishda va bolalarni qishiqtirishda o'qituvchidan katta mehnat va kuch ta'lub etadi. Shu sababli natijaga erishish uchun esa ishni avval Milliy o'quv dasturida belgilangan kompetensiyalardan boshlab o'quvchida amaliy ko'nikmani shakllantirishga harakat qilish zarur. Ijodkorlikni rivojlantirish, amaliy kompetensiyalar, o'z-o'zini asrash kabi ko'nikmalarga amal qilib dars sifati oshirilishi yo'lida natija ko'rish mumkin nazarimizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637-soni qonuni.
2. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent "Sharq" 2007 y.
3. Umumi o'rta ta'lim DTS va o'quv dasturi. Toshkent "SHarq" 2006 y.
4. Mirziyoev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" PF-4947-soni farmoni.
5. Boymirzayev.X va boshqalar. "Musiqa o'rganish metodikasi" T. 1995 169 bet
6. Ibragimov.O "6- sinf musiqa darsligi", T- 2020. 98 bet
7. Begmatova S "7- sinf musiqa darsligi", T-2013. 86 bet
8. Ibraximjonova, L.Urmanova, M.Xodjayeva, F.Xalilov "Musiqaning elementar nazariyasi- garmoniya" Toshkent-2017 184 bet
9. Panjiyev, D.Karimova, N.Karimova "Musiqa to'garaklarini tashkil etish" Toshkent "Innovatsion ziyo" 2020.74 bet
10. Ishmuhammedov, M. Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent- 2017. 282 bet
11. Solomonova E. «O'zbek musiqasi tarixi».Toshkent.«O'qituvchi».1983. 159 bet